




# JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



21-  
noyabr  
2023-yil  
seshanba

№7-8 (24)



## «SIZLAR MENING HAMKASBLARIMSIZ...»

**Institutimizning ilk bosqich talabalari  
shifokorlik qasamyodini qabul qildi.**

**Tantanali marosim Islom Karimov nomli viloyat  
Teatr-konsert saroyida bo'lib o'tdi.**

Tadbirda ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalist va blogerlar, keng jamoatchilik vakillari, institutimiz jamoasi, talaba-yoshlar hamda ularning ota-onalari ishtirok etdi. Dastlab o'zbek, rus va ingliz tilidagi boshlovchilar nutqidan so'ng O'zbekiston respublikasi davlat madhiyasi yangradi.

Tantanali qasamyod marosimini ochib berish uchun so'z institutimiz rektori, professor Akmal Sidikovga berildi. Professor A.Sidikov o'z nutqi avvalida ilk bosqichda ta'lim olishni boshlagan talabalarimizga «Sizlar mening hamkasblarimsiz...», — deya murojaat qildi.

Rektor barcha qasamyod qabul qilish uchun yig'ilgan talaba-yoshlarni chin dildan samimiy qutladi va talabalik yillaridagi eng yorqin xotiralarini, tibbiyot yo'lida bosib o'tgan marallarini ular bilan baham ko'rib, ulkan zafarlar tiladi.



**Shu bilan birgalikda oliygohimiz rektori  
2023-yilda rektor stipendiyasini qo'lga kiritgan  
talaba-yoshlarimizga maxsus guvohnomalar  
taqdim etdi.**

Marosimning eng kulminatsion nuqtasida 1-bosqich talabalarimiz 3 ta tilda qasamyod qabul qildi. Qasamyod qabul qilish jarayonida talabalar, ota-onalar hamda ustozlarning ko'nglidagi ajib hayajonni ularning quvonch ko'z yoshlaridan sezish mumkin edi.

Professional mutaxassislikka ilk qadam qo'yg'an yoshlar butun vujudi ila chin dildan unutilmas kunda qasamyod qilishdi. Tantanali qasamyod marosimining badiiy qismi estradamiz yulduzlarining kuy qo'shiqlari, raqslar guldastasi bilan davom etib, u barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Tadbir yakunida talaba-yoshlarning ota-onalariga so'z berildi. Ular o'z nutqi davomida farzandlarining barcha imkoniyatlarga ega bo'lgan shunday ta'lim dargohida tahsil olayotganliklaridan behad mamnun ekanliklarini bildirishdi, qolaversa, barcha talabalarining o'qishlariga ulkan zafarlar tilashdi.



**Unutilmas damlar. Tadbirdan so'ng, ota-onalar  
bo'lajak shifokor farzandlari bilan esdalik uchun  
suratga tushdilar.**



**Bir so'z bilan aytganda, bugungi qasamyod  
marosimi barcha ishtirokchilarning, talaba-  
yoshlarning hayot zarvaraqlaridan o'chmas joy  
oldi.**



**Marosim davomida professor Akmal Sidikov  
institutimiz xalqaro fakultetning namunali,  
bilimga chanqoq xorijiy talabalarini maxsus  
sertifikatlar bilan taqdirladi.**

Sh.NORMUHAMMADOV



## E'tirof

## YIL YUTUG'I

Bu yil Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri institutimizni yilning yutug'i deb nomladi!



Bundan ikki yil muqaddam oliygohimiz Oliy ta'lim muassasalari milliy reytingida 65-o'rinni egallagan edi. Bu yil esa haqiqatan biz uchun ijobiy o'zgarishlar yili bo'ldi. Institutimiz 76 ta Oliy o'quv yurtlari orasida 45-o'rinni egallab, 20 pog'onaga yuksaldi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, jonajon maskanimiz THE World University Rankings reytingda dunyoning 1000 ta Oliy o'quv yurtlariga da'vogar sifatida tan olindi. Tez orada esa ushbu yutug'imizni ham sizlar bilan bo'lishishdan mamnun bo'lamiz.

Jamoamiz bilan qilgan mehnatlarimiz zahirida tibbiy ilmlarni yuksaltirish, uni yuqori bosqichlarga olib chiqish yotadi.

2023-yilning 30-oktabr kuni nufuzli «Round University Ranking – RUR» reytingida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti TOP-1000 ta OTMLar orasida e'tirof etildi.

Oliyoghimiz ta'lim, ilmiy tadqiqot, xalqaro hamkorlik, moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari va yana 20 ta indikator bo'yicha yuqori natijaga erishib, 25.234 ball to'pladi hamda 924-o'rinni qayd etdi.

Bu yilgi reytingda dunyoning 82 ta davlatidan 1500 ta oliy ta'lim muassasalari ishtirok etdi. Quvonarlisi shuki, institutimiz O'zbekiston tibbiyot OTMLari orasida faxrli 1-o'rinni, barcha OTMLari orasida esa 9-o'rinni egalladi.

2023-yilning 30-oktabr kuni nufuzli «Round University Ranking – RUR» reytingida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti TOP-1000 ta OTMLar orasida e'tirof etildi.

Oliyoghimiz ta'lim, ilmiy tadqiqot, xalqaro hamkorlik, moliyaviy barqarorlik

yo'nalishlari va yana 20 ta indikator bo'yicha yuqori natijaga erishib, 25.234 ball to'pladi hamda 924-o'rinni qayd etdi.

Bu yilgi reytingda dunyoning 82 ta davlatidan 1500 ta oliy ta'lim muassasalari ishtirok etdi. Quvonarlisi shuki, institutimiz O'zbekiston tibbiyot OTMLari orasida faxrli 1-o'rinni, barcha OTMLari orasida esa 9-o'rinni egalladi.

Ishonamanki, biz doimo izlanishda davom etamiz.

**Akmal SIDIKOV,**  
institut rektori, professor.

## Bizning talabamiz

## OQILBEK MUHAMMADJONOV

Davolash ishi fakulteti  
5-bosqich talabasi



Men tibbiyot sohasida ustozlarimdan olgan bilimlarimni imkon qadar boshqalar bilan bo'lishgim keladi. Shifokorlik kasbida amaliy va nazariy bilimlarni mujassamlashtirish eng muhim omildir. Insonlarning dardiga davo bo'lish uchun esa bizdan shirin so'z, o'tkir zehni va tajriba talab etiladi. Mana shunday xislatlarni o'zimizda

namoyon etishimiz bizni mukammallik tomon olib boradi.

Meni shifokorlik sohasiga qiziqishim o'z oilamdan boshlangan. Qolaversa, nevrologiya sohasida tahsil olish yoshligimdagi orzularimdan biri edi. Bugun ana shu orzuim amalga oshdi.

Hozirda Davolash fakulteti 5-bosqich talabasiman. Institutimiz bilim va

amaliy ko'nikmalarimni rivojlantirishim uchun ko'makdosh bo'lmoqda.

Xalqaro olimpiadada faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritganim, yaqinda O'zbekiston vrachlar assotsiatsiyasi stipendiyasi sohibi bo'lganligim meni tibbiyot sohasida unutilmas yutuqlarni zabt etishga boshlamoqda.

## «MENING MAQSADIM VA TANLOVIM BITTA»



## NARGIZAXON IBROHIMOVA

«Hech kim sizning o'rningizga orzularingizni amalga oshirib barmaydi. Siz o'zingizga ishonishingiz va o'zingiz harakat qilishingiz zarur. Vaholanki, shifokorlik kasbini egallash uchun ishonch dastlabki o'rinlarda turadi.

Har bir kichik qaroringiz siz uchun muhim. Mening maqsadim va tanlovim bitta. Kelajakda mohir shifokor bo'lmoqchiman. Zero, xalqimizga xizmat qilib, ularning e'tirofiga sazovor bo'lish naqadar maroqli.

**Bugungi kunda Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakul'tetining 3-bosqich talabasiman.** Bu dargoh menga keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Ibn Sino izdoshlari xalqaro fan olimpiadasida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritganim ham birgina mening emas, butun institutimizning yutug'idir.



## JAMSHIDBEK USMONOV

Davolash ishi fakulteti 4-bosqich talabasi

Kasblarning eng yaxshisi kishi o'z qo'llari bilan bajaradigan ishdir. Bilak bilan bitmagan ishlar, bilim bilan bitishi haqiqatdir. Men ham shu shior ostida tibbiyot ilmini olishga oshiqaman. Oliyoghimizda ta'lim olayotgan ko'plab talabalar qatori ustozlarimizdan eng kerakli bilimlarni olishga intilganim uchun avitsenna izdoshlari xalqaro fan olimpiadasida sertifikat bilan

taqdirlandim. Shuningdek, ellikdan ortiq tibbiyotga oid maqolalarim nashr etilib, innovatsion targ'ibotchi, intellektual ilmiy izlanuvchan, faol tadqiqotchi kabi ko'krak nishonlariga munosib ko'rildim. Ko'rsatgan ijobiy natijalarim tufayli institutimiz rektori stipendiyasini olishga muvaffaq bo'ldim. Ularning barchasi menga yanada katta mas'uliyat, ulkan kuch-g'ayrat beradi.



# KO'P TARMOQLI KLINIKA AHOLI XIZMATIDA



**Xabaringiz bor, Farg'ona shahridagi 2-sonli shahar shifoxonasida viloyat hokimining tegishli qarori bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ko'p tarmoqli klinikasiga aylantirilgan.**



**250 o'rinli shifoxonada aholiga pulli asosida ham imtiyozli toifaga ega bemorlar — kardiologiya hamda nevrologiya bo'limlarida bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi.**

Klinikada bugungi kungacha 7 ta bo'lim o'z faoliyatini boshlagan. Kelajakda yana kardioxirurgiya, xirurgiyaning boshqa tarmoqlari, nevropatologiya va urologiya kabi bo'limlar kengayishi va qo'shilish arafasida. Bundan tashqari zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanish ishlari davom etmoqda.

— Klinikamiz umid maskaniga aylangan desam adashmayman. Chunki, minglab bemorlarimiz umid bilan shifo izlab, davolanib ketishadi, — deydi kardiologiya bo'limi mudiri Muhayyoxon Hoshimova. — Klinikamizga nafaqat mahalliy aholimiz, balki qo'shni davlatlar fuqarolari ham davolanish uchun kelishadi. Jamoamizda malakali shifokorlar, hamshiralar, mohir mutaxassislar ishlaydi.



Bu yerga ilm vakillari — professorlar, akademiklar jam bo'lishgan. Ularning yordami bilan respublika miqyosidagi eng murakkab jarrohlik amaliyotlari oshirilishi kutilmoqda. Hozirda xirurgiya bo'limi to'liq kapital ta'mirlash jarayonida. Klinikada zamonaviy asboblar, jihozlar bilan ta'minlanganligi tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

— Men uzoq yillardan buyon kardiologiya bo'limida davolanaman, — deydi bemor Mahbuba Abdurahmonova. —Bo'limda ko'plab tajribali, shirinsuxan shifokorlar mehnat qiladi. Barcha xodimlardan roziman, baraka topishsin.



Klinikada shu yilning 1 oktyabridan boshlab, 25 foizli chegirma e'lon qilindi. Qolaversa, kunduzgi stasionar faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, institutning 4 ta kafedrasini shu klinikada joylashgan bo'lib, talabalar bilim olish hamda bevosita amaliyot o'tash uchun hamma sharoitlar yetarli.

— Har kuni talabalar bilan muomala qilishga, ular bilan uchrashishga to'g'ri keladi, — deydi terapiya bo'limi mudiri Natal'ya Kitaeva. — Talabalarga ham zamonaviy, ham samarali bilim berish bilan birgalikda ularni amaliyotga tatbiq qilmoqdaman. Shuningdek, bo'limda 30 o'rin joy tashkil etilgan.



Yana bir yangilik. Yaqinda mazkur shifoxonada 30 o'rin joyli pediatriya bo'limi tashkil etildi. Bolalar shifokori Hasanboy Mullajonovning ta'kidlashicha, bugungi kunda bolalar uchun yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish ustida ish olib borilmoqda. Shuningdek, bolalar o'rtasida kasalliklar profilaktikasi, ularni barvaqt aniqlash va sog'lomlashtirish dasturlari amaliyotga joriy etilmoqda.

**I.ABDUJABBOROV  
M.QODIROV olgan suratlar.**



# “SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SAHIFADA: FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTINING MALAKALI, PROFESSOR-O‘QITUVCHILARI, SHIFOKORLARINING TIBBIYOT BILAN BOG‘LIQ URF-ODAT VA QADRIYATLAR, XALQ TABOBATI, AHOLI SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH VA TURLI XASTALIKLARNI OLDINI OLISH MAVZULARIDAGI MAQOLALARI KENG YORITIB BORILADI.



## QIZAMIQNING DAVOSI BORMI?



**Habibullo YULDASHEV,**  
epidemiologiya va yuqumli kasalliklari hamshiralik ishi kafedrasida assistenti.

Qizamiq o'tkir yuqumli virusli kasallikdir. U ayniqsa eylanmagan bolalar salomatligi va hayoti uchun katta xavf tug'diradi. Kasallik bemor aksa urishi va yo'talishi natijasida havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Virus havoda va tashqi muhitda ikki soat davomida faol va zararli bo'lib turadi.

Shu bois, qizamiqqa chalingan bemorlardan kasallik belgilari boshlangunicha va

undan so'ng bir necha kun davomida boshqalarga yuqish xavfi yuqori bo'ladi. Xususan, bemorga toshmalar toshishidan 4 kun oldin va toshma paydo bo'lgandan so'ng 4 kun davomida tarqalishi mumkin. Muammoning oldini olish uchun, avvalo, jamoat joylari, jumladan, bolalar bog'chalari, maktablar va tibbiyot muassasalarida epidemiyaga qarshi tadbirlarni to'g'ri va oqilona tashkil etish, bolalar salomatligini jiddiy e'tiborga olish lozim.

Kasallikning birinchi belgisi kasallik yuqqanidan so'ng 10–12-kundan boshlab harorat ko'tariladi, bir haftagacha harorat tushmaydi va quyidagi belgilar bilan kechadi:

- tana haroratini baland ko'tarilishi;
  - ko'z qizarishi;
  - yo'tal;
  - toshma toshishi;
  - burun bitishi va holsizlik;
  - og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida oq mayda dog'lar.
- Odatda qizil toshmalar avval yuz va bo'yin sohasida paydo bo'ladi, so'ngra, tepadan pastga qarab tarqaladi, keyin qo'l va oyoqlarga chiqadi.

Toshma tosha boshlaganidan beshinchi kundan boshlab bemor atrof uchun zararsiz hisoblanadi. Tuzalish jarayoni kasallikdan so'ng 2-3 hafta kechadi.

Zotiljam, ensefalit, o'tkir diareya...

Qizamiqqa qarshi eylanmagan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar, ayniqsa, chaqaloqlar, immuniteti

past bemorlar, homilador ayollarda bunday yuqumli kasallik og'ir asorat qoldirishi mumkin. Xususan, kasallikdan keyin quyidagilar kuzatiladi:

- zotiljam;
- ko'rlik;
- ensefalit;
- o'tkir diareya;
- o'rta quloq yallig'lanishi.

Davolash mumkinmi?


Shuni aytish mumkinki, tibbiyot rivojlangan bugungi asrimizda ham hali-hamon qizamiqning maxsus davosi yaratilmagan. Qizamiqqa chalingan bolalar, eng avvalo, to'laqonli ovqatlanishi va diareya holatida regidratatsion davo olishi zarur.

Shu bilan birga, A vitamin iste'mol qilish kasallikning og'ir asoratlari oldini olish mumkin. Sutkasiga A vitaminini ikki dozada qabul qilish bolalar o'rtasida qizamiqdan o'lim holatlarini 50 foizga kamaytiradi. Qizamiqqa chalingan bemorlarda butun hayot davomida immunitet hosil bo'ladi. Ularni kasallikka qarshi emlash shart emas.

**Emlash – eng samarali kurash yo'li**

Masalan, 2000 yildan 2017 yilgacha bo'lgan davrda yer yuzida qizamiqqa qarshi emlash natijasida o'lim holati sakson foizga kamaygan, ya'ni 21,1 million o'lim holatining oldi olingan.

Yer yuzida qizamiqqa qarshi emlash natijasida o'lim holati kamaygan



Qizamiqqa qarshi vaktsina mamlakatimiz tibbiyotiga ham joriy etilgan va bolalar bir va olti yoshida bu kasallikka qarshi reja asosida eylanadi. O'zbekistonda emlash dasturi doirasida ishlatiladigan vaktsinalarning barchasi xavfsiz va samarali. Emlashdan keyingi jiddiy nojo'ya holatlar deyarli qayd etilmaydi.

## GIPERTONIYAGA TASHQI MUHIT SABABCHIMI?



**Jamshidbek USMONOV,**  
davolash ishi fakulteti 4-bosqich talabasi

Qon bosimining oshishi yoki gipertoniya - bugungi kunda yurak-tomir tizimining eng keng tarqalgan kasalliklaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon kasalliklarini avj olishida tashqi muhit ahamiyati katta bo'lib, gipertoniya kasalligini ham rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Xastalikning oldini olishning eng oqilona, foydali va zararsiz usuli tinchlanib olish hisoblanadi. Agar inson o'z asablarini

asramagan ho-latda yursa gipertoniya kasalligi bundanday yuqori qo'zg'alishi mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoda davom etayotgan gipertoniya kasalligi bemorlarda juda ham og'ir kechib, inson organizimida juda ham salbiy ta'sirlar vujudga kelmoqda.

Kasallik arterial qon bosimining ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi va ko'pincha uning ko'rsatkichi 140/90 oshib ketishi bilan sodir bo'ladi. Mutaxassislar fikricha, gipertoniya qon aylanish tizimining buzilishi natijasida saqlanib qolayotganini ta'kidlashmoqda.

Hozirgi holatda gipertoniyaning kelib chiqish sabablari tashqi muhit bilan bog'liq bo'lib, kasallikning rivojlanish sababi uzoq vaqt davomida stress va tushkunlik holatida yurish, tez-tez psi-xologik zo'riqishlardir. Ko'pincha bularni doimiy emotsional taranglikni talab etadigan ish fao-liyati keltirib chiqaradi. Bundan tashqari miya chayqalishiga uchragan bemorlarda ham kasallik rivojlanishi xavfi yuqori bo'ladi. Irsiy moyillik ham sabablar qatorida: agar avlodda bu kasallik uchragan bo'lsa, unda ham ushbu kasallik rivojlanishi xavfi bir necha barobarga ortadi

Davolash paytida bemorlar har qanday stress yoki hissiy zo'riqishdan yiroq bo'lganlari ma'qul. Bemorlar ochiq havoda, hovuz atrofida, bog'da, o'rmonda sayr qilishlari tavsiya qilinadi





## Bolalar yilda necha marta shamollasa, xavf guruhiga kiradi?

— Inson organizmi turli kasalliklarga qarshi samarali kurashishi uchun uning immuniteti mustahkam bo'lishi lozim. Odatda u haqida ko'pchilikda bir xil fikr mavjud. Ya'ni immunitet tananing himoya tizimi.

Darhaqiqat, tananing ushbu himoya qobiliyati infeksiyon kasallik qo'zg'atuvchilari (bakteriya, virus, rikketsiya), turli toksinlar, mutatsiyaga uchragan onkologik hujayralar, turli parazitlarga (askarida, exinokokkoz) qarshi kurashadi.

U go'daklarda ona qornidayoq shakllanadi. Bir

yoshgacha bo'lgan bolajonlarda esa immunitet ona suti orqali o'tadi.

Ushbu tabiiy ozuqa tarkibida qator tirik ingridiyentlar, foydali bakteriyalar, ferment va gormonlar bo'lib, ular chaqaloq tanasining turli infeksiyalarga qarshi kurashuvchanligini oshiradi. U bilan oziqlangan go'dak shamollash, gripp, otit va yuqori nafas yo'llari infeksiyalari hamda stomatit kabi xastaliklardan kamroq aziyat chekadi.

Shuningdek, tug'ilgandan so'ng bola organizmida turli

infeksiyalarga qarshi immunitet profilaktik emlanish orqali ham hosil qilinadi.

3 yoshgacha go'daklar yiliga 4 martadan ko'p, 3 yoshdan yuqori bolalar esa yiliga 6 martadan ortiq respirator kasalliklar, ya'ni O'RVI, gripp, bronxit bilan xastalansa, ular tez-tez shamollovchi bolalar guruhiga kiradi.

Bunday kichkintoylar doimiy ravishda shifokor nazoratida bo'lishi va mutaxassis tavsiyasi asosida kerakli muolajalarni olishi zarur.



## O'RVI: Noto'g'ri muolajalar qanday asoratlarni keltirib chiqaradi?

Ammo bolalarning necha bor kasallikka chalinishidan ko'ra, ularning tuzalish muddati qisqaligi ko'proq muhim. Ayniqsa, xastalikdan so'ng asoratlarni qolmasligi asosiy natija.

Bemor bolalar muolajasi davomli parvarishni talab qiladi. Ammo, O'RVIga chalingan bemor farzandlarni uy sharoitida davolashda shifokor tavsiyasiz, o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladigan noto'g'ri muolajalar asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Masalan, tana harorati yuqori bolaning tomog'ini

yod yoki zelyonka bilan artish ko'pchilik yo'l qo'yadigan katta xatolardan biri. Chunki shamollagan bolaning nafas yo'li shilliq qavatida juda nozik, qolaversa, virusdan yallig'langan va shishgan bo'ladi.

Agar yuqorida aytilgan surtmalar bilan ishlov berilsa, shilliq qavat jarohatlanib, shish kattalashib, laringit yuzaga kelishi va boshqa asoratlarni kuzatilishi mumkin.

Tana harorati ko'tarilganda parasetamol berish tavsiya etiladi. Ammo ba'zi ota-onalar tibbiyotdan yaxshi xabardor bo'lmagan qo'shnisini chaqirib, anal'gin,

dimedrol, novokain qo'shib mazkur aralashmani isitma tushirishda qo'llashadi.

Bu mutlaqo mumkin emas. Birinchidan, analgin qonni suyultirib yuboradi. Dimedrol esa bolada yo'tal paydo bo'lgan, bronxlar torayib qolgan paytda asoratlarni yanada kuchaytiradi.

Bundan tashqari, allergik yo'tal, astma, yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishi kuzatilayotgan bolalar bor xonalarda isiriq tutatish yanglish xatti-harakatdir. Chunki tutun bola organlari spazmini ko'paytirib, yo'talni yanada kuchaytirishi mumkin.

O'z navbatida, tumov belgilari kuzatila boshlasa, o'zboshimchalik bilan bolalarga antibiotiklar berish ham katta xato. Negaki, bunday preparatlar virusli xastaliklarda yordam bermaydi. Aksincha, aks ta'sir ko'rsatadi.

Agar bolada pnevmoniyaning ilk belgilari kuzatilsa, shifoxonada davolanish tavsiya etiladi.

**Dinora DO'STMUHAMMEDOVA, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bo'lim boshlig'i.**

**Mutaxassislar fikriga ko'ra, kichik yoshdagi o'g'il-qizlarning yiliga 3-4 marta o'tkir respirator virusli kasalliklar bilan og'rihi normal holat. Ayniqsa, kuz-qish mavsumida bunday infeksiyalar keng tarqaladi.**

## GRIPPGA QARSHI VAKSINALARNING SAMARADORLIGI 90 FOIZNI TASHKIL ETADI - MUTAXASSIS

— Gripp — "oyoqda o'tkaziladigan" kasallik emas! Uni oddiy shamollash deb o'ylab, o'zboshimchalik bilan davolanish ham noto'g'ri. Chunki bu xastalikning o'zidan ko'ra asoratlari ko'proq xavfli.

Negaki, gripp virusi qon tomirlari devorlarining kasalliklarga nisbatan himoya qobiliyatini susaytirib yuboradi. Shu sababli infeksiyalar qon oqimi orqali ichki organlarga

yetib borib, yallig'lanish o'choqlarini hosil qiladi.

Oqibatda u pnevmoniya, bronxit, yuqori nafas yo'llarining ikkilamchi bakterial infeksiyalari, asab va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari hamda qandli diabet kabi xastaliklarni keltirib chiqaradi. Eng yomoni, ushbu darddan o'z vaqtida davolanmaslik o'limga olib keladigan ham sabab bo'lishi mumkin.

Bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tahliliy hisoboti bor. Unga

ko'ra, dunyo bo'yicha yiliga 650 ming nafarga yaqin inson mavsumiy grippdan vafot etadi. Qolaversa, ushbu virus turli surunkali kasalliklarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishi bilan xavfli.

Mana, hozir barcha yoshdagi insonlar, ayniqsa bolalar va o'smirlar orasida gripp virusi ko'p uchraydigan mavsum. Ko'tarilish davri odatda noyabr oyidan boshlanib, mart oyigacha davom etadi.

Mutaxassis sifatida bunday paytda

xastalikdan ishonchli himoyalani uchun unga qarshi emlanishni tavsiya etamiz. Bu — eng samarali va katta sarf-xarajat talab etmaydigan usul.

Qolaversa, vaksina xavfsiz va yuqori ta'sirga ega bo'lib, yillik kasallanish va o'limga olib boradigan holatlarini yetarlicha kamaytiradi.

Mavsumiy grippga qarshi vaksina organizmda 15 kun ichida grippga qarshi immunitet ishlab chiqadi. Ta'sir kuchi 1 yilga yetadi.

Emlashdan oldin shifokor tomonidan, albatta, emlanuvchi shaxsning umumiy salomatligi tekshirilib, shunga ko'ra vaksinatsiya qilish-qilmaslik belgilanadi. Ya'ni, emlanadigan kishi shamollash, nafas olish yo'llari yallig'lanishi kabi kasalliklardan tamoman sog'lom bo'lishi kerak.


Shuningdek, vaksina tarkibidagi komponentlarga nisbatan allergik ta'sirchanlik darajasi ham tekshiriladi.

Hozir yurtimizda grippga qarshi emlash ishlari qizg'in davom ettirilmoqda.

**Dilorom TURSUNOVA, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi bo'lim boshlig'i.**

### Grippni qanday oldini olish mumkin?

**Emlash ayniqsa havfli guruh bemorlar uchun zarurdir**





## Institutimiz hayotidan

### O'ZBEKISTON – BAG'RIKENG DIYOR

Institutimizda «Bag'rikenglik haftaligi» keng nishonlandi. Ushbu haftalik davomida millatlararo totuvlikni, bag'rikenglik rishtalarini mustahkamlash va uni keng targ'ib etishga qaratilgan tadbirlar bo'lib o'tdi. Xalqaro fakultet tomonidan tashkil etilgan Diwali bayramida 200 dan ortiq xorijiy talaba-yoshlar, ushbu fakultetning mas'ullari ishtirok etdi. Tadbirda Hindiston milliy an'alarini aks ettiruvchi urf-odatlar, kuy-qo'shiqlar, raqslar namoyish etildi.



### KO'KRAK NISHON MUBORAK BO'LSIN!

Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomli viloyat Teatr-konsert saroyida Tibbiyot xodimlari kuniga tadbir tashkillandi. Quvonarlisi shundaki, sana munosabati bilan tibbiy ilmlarni yuksalishiga o'zining salmoqli hissasini qo'shib kelayotgan bir guruh professor-o'qituvchilarimiz Farg'ona viloyati hokimi Hayrullo Bozorov tomonidan taqdirlandi. Qolaversa, oliygohimizning jonkuyar ustozlaridan biri, **professor Sodiqjon Madaminovga «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak-nishoni topshirildi.** Mukofotlar muborak bo'lsin, ustoz!



### MAHORAT DARS TASHKIL ETILDI


Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Simulyatsion markazida «FAST protocol - urgent holatlarda ultratovush tekshiruvining ahamiyati» mavzusida markaz mentor-spikeri Shoxruh Ahmadaliyev tomonidan mahorat darsi o'tkazildi. Unda talaba-yoshlar amaliy jarayonlar bilan yaqindan tanishib, turli tana jarohatlarida gemoperitoneum, gematoraks, gemopericardium, pnevmatoraks kabi hayot uchun xavfli holatlarni ultratovush yordamida aniq tashxislash ko'nikmasini egalladilar. Oliyoghimizda bunday amaliy mashg'ulotlar tizimli ravishda davom etadi. Jumladan, yaqinda Ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasida tomonidan Davolash ishi fakulteti talabalariga amaliy dars mashg'ulotlari olib borildi.

Mashg'ulotlar davomida talabalarimiz darslarda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rganib, turli hil tajribalarlar o'tkazishmoqda.



### YANGI FAKULTET FAOLIYAT BOSHLADI

Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda institutimiz rektorining tegishli buyrug'i bilan ta'lim muassasamizda Pediatriya fakulteti tashkil etildi. Endilikda institutda jami 4 ta fakultet ish olib boradi. Pediatriya fakulteti tashkillanishi munosabati bilan ushbu fakultetga dekan sifatida Haydarov Azizjon Qosimovich, Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakultetiga esa dekan sifatida Hamraqulov To'liqinjon Zokirovich tayinlandi. Ma'lumot uchun, yangi tashkil etilgan Pediatriya fakultetida stomatologiya, pediatriya, farmatsiya kabi yo'nalishlar mavjud.



### INSTITUTIMIZNING PAZANDA QIZLARI

Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakultetining talaba-qizlari ishtirokida «Pazanda qizlar» mavzusida somsa tayyorlash musobaqasi o'tkazildi. Qizg'in kechgan musobaqada 20 dan ortiq talaba-qizlar, dekan o'rinbosari hamda tyutorlar boshchiligida bir biridan mazali somsalar tayyorlashdi. Musobaqa so'ngida barcha ishtirokchilar institutimiz tomonidan maxsus faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.



### «YIL TALABASI»:

### G'OLIBLAR ANIQLANDI

Tanlovning ushbu bosqichida 8 nafar talaba tanlov nizomiga muvofiq ishlari bilan ishtirok etdi. Iste'dodli va shijoatli yoshlarni kashf etish va ularni rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladigan mazkur tanlovda joriy yilda 7 nafar talaba ishtirok etdi. Ularni institutimiz mas'ullaridan tarkib topgan hakamlar hay'ati baholab bordi. Tanlovda Tibbiy profilaktika yo'nalishi 3-kurs talabasi Nargizaxon Ibrohimova "Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi" nominatsiyasida 1-o'rinni, 4-kurs talabasi Xumoyunmirzo G'anijonov "Yilning o'z mutaxassisligi bo'yicha eng bilimdon talabasi" nominatsiyasida bo'yicha 2-o'rinni egalladilar. "Yilning eng faol targ'ibotchi talabasi" nominatsiyasi bo'yicha Dilyor Sotvoldiyev 1-o'rinni, Alina Abdiyeva 2-o'rinni, Mavluda Umarova 3-o'ringa sazovor bo'ldilar. "Yilning eng faol ixtirochi innovator talabasi" nominatsiyasi bo'yicha 4-kurs talabasi Jamshidbek Usmonovga 1-o'rin, "Yilning eng ijodkor talabasi" nominatsiyasi bo'yicha 5-kurs talabasi Gulmira Fayzullaeva 1-o'rin nasib etdi. Munosib topilgan nomzodlar tanlovining respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

### “SOG'LOM TISHLAR – JOZIBADOR TABASSUM”

Inson salomatligida tishlarning sog'lom bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuning dolzarbligini inobatga olib, viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi bo'lim mutaxassislari Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchilari bilan birgalikda Farg'ona shahar 10-umumta'lim maktabida uchrashuv tashkil etildi. "Sog'lom tishlar – jozibador tabassum" mavzusida tashkil etilgan uch-rashuvda tishlarni to'g'ri parvarishlash va davolash bo'yicha tavsiyalar berildi.



### TANLOV G'OLIBLARI ANIQLANDI

Institutimizda "Milliy qadriyatlar kuni" doirasida "Milliy qadriyatlarining eng faol targ'ibotchisi" tanlovi bo'lib o'tdi. Tanlovdan milliy qadriyatlarimiz aks etgan chiqishlar, ko'rgazmalar o'rin oldi. Unda institutimizning talaba-yoshlari 4 ta shart bo'yicha bellashdilar.



Qizg'in va murosasiz kurashlarga boy bo'lgan tanlovda institutning tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti g'olib bo'ldi. Shuningdek, davolash fakultetiga 2-o'rin va 3-o'rin xalqaro fakultetiga nasib etdi. G'olib bo'lgan jamoalar pul mukofoti bilan taqdirlandi.

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Matbuot xizmati.**



## Viloyatimizda nima gaplar?



## YANGI TASHKIL ETILGAN MUASSASA ZAMONAVIY QIYOFA AKS ETDI

Farg'ona shahridagi surunkali kasalliklari va nogironligi bo'lgan bolalar tibbiy rehabilitatsiya markazi ta'mirdan chiqqan binoda ish boshladi.

Mazkur shifoxona 50 o'rinli byudjet va 50 o'rinli pullik xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Unda 2 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan surunkali kasalligi va nogironligi bo'lgan bolalarga 12-14 kun davomida rehabilitatsiya amalga oshiriladi.

Markazda asab, suyak mushak va tayanch, endokrin va kardiojarrohlik amaliyotidan keyingi rehabilitatsiya bo'limlari faoliyat yuritmoqda.



Quvonarlisi, oktyabr oyidan markazdagi yangi tashkil etilgan 10 o'rinli kardiojarrohlik rehabilitatsiya bo'limida 10 nafar bolalarga rehabilitatsiya o'tkazildi. Avval bu bemorlar Toshkent shahriga borib davolanishar edi.



## QO'QON SHAHRIDA YANGI YURAK QON-TOMIR JARROHLIK MARKAZI ISHGA TUSHDI

Bir million dollar miqdoridagi investitsion loyiha doirasida «Avitsenna Med Servis» xususiy klinikasiga Hindistonning «Allen-gers» kompaniyasining Angiograf va S-Duga rentgen apparati hamda tibbiy uskunalar o'rnatildi. Yangi markaz Qo'qon shahri va atrof tumanlardagi yurak

xastaligi bilan bog'liq yuqori texnologik tibbiy amaliyotlarga muhtoj bemorlarga xorijga yoki boshqa hududlarga bormasdan shu yerning o'zida jahon andozalari darajasidagi tibbiy xizmat ko'rsatish va salomatligini tiklash uchun sarflaydigan mablag'ini bir necha barobar tejash imkonini beradi.

## E'TIROF

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hududiy filiallarining rivojlanish reyting natijalari e'lon qilindi. Quvonarlisi, ushbu reytingda Farg'ona viloyati filiali 1-o'rinda qayd etildi. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialida 12 ta yo'nalishdagi ishlar 87 foizga bajarilgan. Reytingda 5130-son Prezident Qarori ijrosi, investitsiya, chet el klinikalari bilan hamkorlik, mutaxassislarni chet elda malaka oshirish ko'rsatkichi, skrining dasturlari, dori darmon ta'minoti, moddiy texnik bazasi, yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari, innovatsiya, davlat sherikchilik asosidagi filial tashabbusi, muassasaning ta'mir holati va filial xodimlarining kayfiyati alohida e'tibor qaratiladi.

## PANDIGON MAHALLASIDA TIBBIY KO'RIK TASHKILLANDI



Erta tongdan Rishton tumani Pandigon mahallasi fuqarolari uchun viloyat davolash muassasalarining shifokorlari aholini bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazdilar.

Unga mobil "Mammografiya", mobil "Proskan", ko'chma mobil oftal mologiya, ultra-

tovush, EKG va laboratoriya uskunalar jalb etildi.

Aniqlangan birlamchi kasalliklar bo'yicha sta-sionar hamda ambulator sharoitda davolanishga yo'llanmalar berildi.

**Sahifani M.QODIROV tayyorladi.**

## SO'XDA GEMODIALIZ APPARATI ISHGA TUSHDI

Bugungi kunda So'x tumanida surunkali buyrak kasalligi va buyrak yetishmovchiligi bilan og'rikan va davolanayotganlar bor. Ular dializ muolajalarini olishga qiynalayotgani, uzoq masofa bosib kelishga majbur bo'layotgan edi.

— Yaqinda tumanimizda ham gemodializ xonasi ishga tushdi. Bemorlarning uzog'i yaqin, mushkuli oson bo'ldi, — deydi tuman tibbiyot birlashmasi boshlig'i Usmonjon Mamadaliev. — Markaziy shifoxonada hozircha 2 o'rinli sun'iy buyrak (gemodializ) bo'limi tashkil etildi.

Bemorlarga gemodializ seanslarini uzluksiz tashkilotlash uchun markaziy shifoxonadagi mavjud elektr generatoriga ulandi. Shuningdek, bo'limda suv ta'minoti barqarorligini ta'minlash maqsadida 5 tonna hajmdagi suv yomkosti o'rnatildi.

— Avvallari muolaja olish uchun Farg'ona va Marg'ilon shaharlariga qatnardim, — deydi Oktobro' qishlog'ilik Jaloldin Begmatov — Yaqinda bizda ham gemodializ bo'limi ochilgani bois manzirim ancha yaqinroq bo'ldi. Tashkilotchi mas'ullarga ming rahmat!



## Markaz hayotidan lavhalar

### VILOYAT BOLALAR KO'P TARMOQLI TIBBIYOT MARKAZINING ORTOPEDIYA BO'LIMI TA'MIRDAN CHIQRILIB, FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI.

Mazkur bo'lim 40 o'ringa mo'ljallangan bo'lib, 5,1 mln so'm mablag'lar hisobiga to'liq ta'mirlandi. Natijada bemorlar uchun sharoitlar yaratildi. Har bir davolash xonalarda issiq suv tizimi yangilandi, zamonaviy konditsionerlar o'rnatildi.

Ma'lumot uchun, ortopediya bo'limida o'tgan yili 1691 nafar, shu yilning 9 oyida 1 164 nafar bemorlar davolangan.

### MARKAZDA BELARUSLIK SHIFOKORLAR TOMONIDAN TUG'MA YURAK NUQSONI BO'LGAN BOLALAR OPERATSIYA QILINDI

Yurtimizda O'zbekiston – Belarus' sog'liqni saqlash va tibbiyot ta'limi kunlari doirasida tibbiy ko'rik, yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari, mahorat darslari, konsilium va seminarlar tashkil etildi.

Viloyatning barcha shahar va tumanlaridan kelgan bolalar Minsk shahridagi respublika bolalar xirurgiyasi ilmiy-amaliy tibbiyot markazi shifokorlari tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi.

Aksiya davomida xorijlik va mahalliy mutaxassislar hamkorligida 8 nafar tug'ma yurak nuqsoni bo'lgan bolalarda murakkab jarrohlik amaliyoti bajarildi.







Foto: «ahmedalkhalifa»

Bundan bir necha yillar avval quvaytlik mahalliy shifokorlar bilimi, tajribasini oshirish maqsadida Rossiya va Ukrainaga o'qishga yuborilgan. Ammo bu o'zini oqlamagani uchun to'xtatilib, yuqorida tilga olingan davlatlarda mutaxassislarni o'qitish ma'qul ko'rilgan.

Bundan anglash mumkinki, Quvayt davlatidagi tibbiyot AQSH va Kanada tibbiyot yo'nalishiga asoslangan.

Quvaytda barcha shifokorlar har yili yangilanib turiladigan oxirgi qo'llanmalar asosida davolashni olib borishadi. Tibbiyotning har bir yo'nalishi bo'yicha AQSH, Buyuk Britaniya va Kanada tibbiyot assotsiasiyalari boshchiligida tajribadan o'tgan va davolash usuli ijobiyligi isbotlangan qo'llanma chiqariladi va davolash jarayonida shunga rioya qilinadi.

boshchiligida seminarlar o'tkazilib, dunyo tibbiyotidagi yangiliklardan bir-birini xabardor qilib turishadi. Shu sababli hech qachon shifoxonalarda bir hil mutaxassislik bo'yicha bir-biriga konsultatsiyaga borilmaydi. Bu noodatiy hol. Hamma kasalxona va klinikalar shifokorlari bilim darajasi va saviyasi nisbatan bir hil darajada.

Quvaytdagi shifoxonalarda ishlayotgan doktorlarga maosh ishlayotgan darajasi, ilmiy unvoniga qarab belgilanadi. Taxminan uch hil darajali shifokorlar bo'lib, oliy darajadagi shifokorlar oyligi shunga yarasha ko'proq va mas'uliyati ham katta.

Xorijdan kelib ishlayotgan shifokorlarga 5000-8000 dollar atrofida maosh to'lashadi. Mahalliy shifokorlarga undan ham ko'p to'lanadi.

Har oyda barcha shifoxonalar tegishli shifokor va mutaxassislari

**A.ZOHIDOV,**  
jurnalist.

## Xorij tibbiyoti:

# QUVAYT

**Ma'lumotlarga ko'ra, Quvayt davlatida 40 nafarga yaqin o'zbek shifokorlari faoliyat olib bormoqda.**

Shartnoma orqali ishga joylashgan barcha shifokorlar ham bu yerda ishlab ketolmaydi. Avvalo, bu yerda xorijdan kelgan shifokor bilan uch oylik muddatga shartnoma tuziladi, ya'ni uch oy davomida uning bilim va tajribasi sinovdan o'tkaziladi. Agar shifokor talablarga javob bersa, keyin doimiy shartnomaga imzo chekiladi.

Quvayt – boy davlat. Ko'pchilik ma'lum, neftdan olingan daromad davlat byudjetining taxminan 90 foizini tashkil qiladi. Aholi bor-yo'g'iga to'rt million nafarligini hisobga olsak, bu fuqarolar uchun juda katta imkoniyatlar yaratilgan, degani.

Davlat tibbiyot bilan bog'liq barcha xarajatlarni ko'taradi, mamlakatdagi shifoxonalar, klinikalar eng zamonaviy, eng innovatsion tibbiy texnika, uskuna, laboratoriya asboblari va zarur dori darmonlar bilan ta'minlangan.

Quvaytda shifokorlar yetishmaydi, shu sabab xorijlik mutaxassislarga talab juda katta, hukumat yetuk soha vakillarini ishga taklif qilib katta miqdordagi maoshlarni to'laydi.

So'nggi yillarda quvaytlik yoshlarni tibbiyot yo'nalishida xorijda o'qitish yo'lga qo'yildi. Hukumat bunga katta e'tibor qaratyapti. Kasalxonalarda ishlayotgan mahalliy shifokorlar AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Germaniya kabi tibbiyoti, rivojlangan davlatlarda malaka oshirmoqdalar.




Foto: mustseespots.com

Quvayt mineralari Quvayt shahridagi uchta suv minoralaridan iborat guruhdir. Ular 1977-yil 26-fevralda rasman ochilgan va zamonaviy Quvaytning diqqatga sazovor joyi va ramzi sifatida qabul qilingan. Quvayt davlatida chuchuk suv manbai mutlaqo yo'q. Hatto eng chuqur quduqlar ham sho'r suv bilan to'ldirilgan. Shuning uchun chuchuk suv bu erda eksport qilinadi yoki maxsus qurilmalarda ishlab chiqariladi.

### JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:  
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan 6-sentabr 2021-yil №12-132 raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:  
**Akmal SIDIKOV**  
NASHR UCHUN MAS'UL  
**I.ABDUJABBOROV**  
Qog'oz bichimi: A-3  
Oyda bir marta o'zbek tilida chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:  
150105, Farg'ona shahar, Yangi Turon ko'chasi, 2-uy  
Tel.: (73) 243-06-62  
(94) 444-91-76

fmiroz@mail.ru

fjsti.uz



GAZETA BEPUL TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

**BOSMAXONA MANZILI:**  
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.  
Bosmaxonaga 20.11.2023 yil, soat 16 00 da topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 500